

**NAMANGAN VILOYATIDAGI YENGIL SANOAT
KORXONALARI ISHCHILARINING MEHNAT
MUHOFAZASI MASALALARI VAQTLI MATBUOTDA
YORITILISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR
(Namangan viloyatida 1985-1988-yillarda chop
etilgan vaqtlı matbuot nashlarida e'lon qilingan maqolalar
tahlili asosida)**

*Turg'unov Sherzod Abduvositovich, Farg'ona davlat universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrası tayanch doktoranti*



<https://orcid.org/0009-001-0570-1020>
e-mail: turgunovs979@gmail.com

**SOME COMMENTS ON THE COVERAGE IN
THE MEDIA OF LABOR PROTECTION ISSUES OF
WORKERS IN LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN
NAMANGAN REGION**

*(Based on the analysis of articles published in
periodicals published in Namangan Region in 1985-1988)*

*Turgunov Sherzod, Doktorat student at the department of
History of Uzbekistan Fergana State University*



**НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К ОСВЕЩЕНИЮ ВОПРОСОВ
ОХРАНЫ ТРУДА РАБОТНИКОВ ПРЕДПРИЯТИЙ ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В СРЕДСТВА
МАССОВЫХ ИНФОРМАЦИИ**

*(На основе статей опубликованных в периодических изданиях,
издававшихся в Наманганской области в 1985-1988 гг)*

*Тургунов Шерзод Абдувоситович, докторант кафедры Истории Узбекистана
Ферганского государственного университета*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'tgan asrning 1985-1988-yillarida Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida mehnat faoliyati bilan shug'ullangan ishchilarning mehnat muhofazasi doirasida amalga oshirilgan tadbirlarning haqiqiy ahvoli haqida, xususan, ularning sog'liklarini saqlash jarayonida muhim o'rin tutuvchi ishchilarni sanatoriyalar, dam olish uylari va sanatoriya-profilkatoriyalarga yuborish haqidagi ma'lumotlarni vaqtli axborot nashrlarida e'lon qilingan maqolalarda yoritilishi haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: mehnat muhofazasi, "Avrli" gazlamalar ishlab cibqarish birlashmasi, Namangan poyafzal fabrikasi, "Namangan haqiqati" gazetasi.

Abstrakt: This article discusses the actual state of measures taken within the framework of labor protection of workers engaged in labor activities at light industrial enterprises in the Namangan region in 1985-1988 of the last century, in particular, the information on sending workers to sanatoriums, rest homes and sanatorium-dispensaries, which play an important role in maintaining their health, was covered in articles published in periodicals.

Key words: Labor protection, “Avrli” Textile Manufacturing Association, Namangan Shoe Factory, “Namangan Haqiqati” Newspaper.

Аннотация: В данной статье рассматривается фактическое состояние мероприятий, проводимых в рамках охраны труда работников, осуществляющих трудовую деятельность на предприятиях легкой промышленности Наманганской области в 1985-1988 годах прошлого столетия, в частности, в статьях, опубликованных в периодических изданиях, освещены сведения о направлении работников в санатории, дома отдыха и санатории-профилактории, которые играют важную роль в сохранении их здоровья.

Ключевые слова: охрана труда, текстильное производственное объединение “Аврли”, Наманганская обувная фабрика, газета “Наманган хакикати”.

KIRISH. XX asrning oxirgi choragida O‘zbekiston sanoati, xususan Namangan viloyatidagi to‘qimachilik va tikuv –trikotaj korxonalari sobiq Sovet Ittifoqi iqtisodiyotida muhim o‘rin tutgan. Sobiq Sovet Ittifoqida 1985-yilda boshlangan “qayta qurish” siyosati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda mehnat muhofazasi masalalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Jumladan, 1985-1988-yillarda Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida ishchilarning mehnat muhofazasida muhim o‘rin tutuvchi jarayon bo‘lgan ishchilarning ishlab chiqarish jarayonida yo‘qotilgan sog‘liklarini tiklash va ularning mehnat qobiliyatlarini yanada oshirish uchun sihatgohlar, dam olish uylariga yuborish masalasida bir qator amaliy ishlar bajarilgan. Bu jarayonlar o‘z navbatida o‘rganilgan davrda Namangan viloyatida nashr etilgan vaqtli matbuot nashrlarida yoritib borilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ushbu maqolada asosan Namangan viloyat partiya qo‘mitasi va viloyat Kengashining rasmiy nashri bo‘lgan “Namangan haqiqati” gazetasida e‘lon qilingan maqolalardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

-Tarixiy-deskriptiv yondashuv – mavjud matbuot materiallarini tavsiflash;

-Qiyosiy tahlililiy metod – Namangan viloyatida 1985-yilda va undan keyingi davrda faoliyat olib borgan yengil sanoat tarmog‘iga oid korxonalardagi ishchilarning mehnat muhofazasining holatini sobiq Sovet Ittifoqining boshqa hududlaridagi xuddi shunday sanoat korxonalaridagi holatlar bilan qiyoslash.

TADQIQOTNING AMALGA OSHIRILISHI.

Tadqiqot jarayonida Namangan viloyatida 1985-yilda va keyingi davrda faoliyat olib borgan yengil sanoat sanoat korxonalarining xususan oziq ovqat sanoati va to‘qimachilik korxonalarining muhandis va texnik xodimlariga, ishchi va xizmatchilariga va ushbu korxonalarda tibbiy–sog‘lomlashtirish xizmatining holatini yaxshilash asnosida ushbu korxonalarda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan muhandis va texnik xodimlar, ishchi va xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilashda, ularning mehnat muhofazasini ta‘minlash borasida mavjud holat bo‘yicha erishilgan yutuqlar va kamchiklar to‘g‘risida Namangan viloyati Davlat arxivida saqlanayotgan sanoat korxonalarining faoliyatiga oid fondlarni va bundan tashqari Namangan viloyati partiya qo‘mitasi va viloyat Kengashining rasmiy nashri hisoblangan “Namangan haqiqati” gazetasining 1985-1988-yillarda nashr qilingan sonlarida e‘lon qilingan maqolalarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida zarur ma‘lumotlar qo‘lga kiritildi. Bu jarayonda maqolaga oid ma‘lumotlarni to‘plash jarayonlari Namangan shahridagi Nodira nomidagi Axborot Kutubxona markazining fondlarida saqlanayotgan o‘tgan asrning 80-90-yillariga oid vaqtli matbuot nashrlari o‘rganildi va ilmiy tadqiqot ishiga oid muhim ma‘lumotlar qo‘lga kiritildi.

Bu jarayonda “Namangan haqiqati” gazetasining 1985-1988-yillarda nashr etilgan sonlari xronologik tartibda ko‘rib chiqildi. Ushbu gazetalarning deyarli barcha sonlarida sanoat yangiliklari rukni mavjud bo‘lgan. Ushbu ruknda viloyatda sanoat sohasida yuz berayotgan muhim yangiliklar, sanoat korxonalarida ishchilar va xizmatchilar uchun yaratilayotgan mehnat sharoitlarida erishilayotgan yutuqlar va shu bilan

bir qatorda mavjud kamchiliklar haqida, mehnatkashlarning sog'liklarini saqlash va mehnat qilish qobiliyatini qayta tiklash va ish unumdorligini oshirish yuzasidan bajarilgan tadbirlar hususan sanatoriyalar, kurortlar va dam olish uylarida mehnatkashlarni o'z sog'liklarini tiklash va mustahkamlash bo'yicha bajarilgan amaliy ishlar va sanoat korxonalarining moddiy-texnik holati, ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etilayotgan yangiliklar, sanoat korxonalaridagi novatorlik, ratsionalizatorlik faoliyatlari haqida va shuningdek viloyatdagi zavod va fabrikalarning davlat tamonidan qo'yilgan mehnat majburiyatlarini bajarish sohasidagi yutuqlari va kamchiliklari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlarni o'rganish jarayonida qiyosiy taqqoslash usullaridan ham foydalanildi. Bu jarayonda xuddi shu davrda Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida, xususan RSFSRdagi sanoat korxonalari yoki Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida joylashgan Ukraina SSR, Belorussiya SSR kabi respublikalardagi sanoat korxonalarida ishchilar uchun yaratilgan mehnat sharoitlari va mehnatkashlarning mehnat muhofazasi haqida va ushbu hududlardagi zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilgan eng yangi jihozlar va uskunarlar va ularning afzalliklari, ishchilarning mehnat muhofazasini ta'minlashdagi ahamiyati haqida ushbu gazetada berilgan ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Qayta qurish yillarida Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida ishchilarning mehnat muhofazasida muhim o'rin tutuvchi jarayon bo'lgan ishchilarning sog'liklarini tiklash va ularning mehnat qobiliyatlarini yanada oshirish uchun sihatgohlar, dam olish uylariga yuborish masalasida bir qator amaliy ishlar bajarilgan. Bu jarayonlar o'z navbatida o'rganilgan davrda Namangan viloyatida nashr etilgan vaqtli matbuot nashrlarida yoritib borilgan. Xususan, "Namangan haqiqati" gazetasida e'lon qilingan maqolalarda viloyatdagi sanoat korxonalaridagi ishchilarning mehnat muhofazasi jarayonlarida mavjud ijobiy o'zgarishlar va shu bilan bir qatorda mavjud muammolar ham aks etgan

Masalan, Namangan viloyat partiya qo'mitasi va viloyat soveti rasmiy nashri hisoblangan "Namangan haqiqati" gazetasining 1985–1988-yillarda nashr etilgan sonlarida

hududdagi sanoat ishchilarining moddiy turmush tarzi, sanoat korxonalaridagi mehnat muhofazasi hamda sharoitlarning haqiqiy ahvolini yoritib beruvchi maqolalar ko'p marotaba e'lon qilindi. Xususan, ushbu gazetaning 1985-yil 15-yanvardagi 9-sonida R.Sulaymonovning "O'zaro tajriba almashildi" deb atalgan maqolasi e'lon qilingan. Ushbu maqolada O'zbekiston SSR Yengil sanoat vazirligi tasarrufidagi sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tajriba almashish maqsadida Namangan shahrida tashkil etilgan amaliy seminar jarayonlari yoritib berilgan. Maqolada keltirilishicha, 1985-yil 10-yanvarda Namangan shoyi ishlab chiqarish birlashmasida O'zbekiston SSR Yengil sanoat vazirligi tarkibidagi korxonalar direktorlari, bosh hisobchilari va kasaba uyushma qo'mitasi raislari ishtirokida respublika amaliy seminari bo'lib o'tgan. Ushbu seminarda shoyi ishlab chiqarish korxonalarida ishchilarning mehnat muhofazasini yanada yaxshilash, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, buning natijasida ishchilarning mehnat sharoitlari sifatini oshirish bo'yicha ilg'or tajribalar almashilgan. Mazkur amaliy seminarda SSSR Yengil sanoat vazirligining mehnat, ish haqi, ishchi kadrlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari S.S.Terkarnetov ham ishtirok etgan[1.3-bet].

"Namangan haqiqati" gazetasi sahifalaridagi maqolalarda nafaqat yengil sanoat korxonalari, balki viloyatdagi qurilish va binokorlik sanoatiga oid korxonalarda 1985–1986-yillarda mehnatkashlar uchun sog'liqni saqlash va tiklashga doir o'zgarishlar ham yoritib borilgan. Masalan, gazetaning 1986-yil 22-yanvardagi 14-sonida A.Yoqubov muallifligida e'lon qilingan "Mehnat kishisi – ardoqda" nomli maqolada Kosonsoy tumanida joylashgan beton zavodida ishchi-xizmatchilar sog'lig'ini saqlash masalasida amalga oshirilgan ijobiy o'zgarishlar haqida to'xtalangan. Maqolada berilgan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu zavodda 1981–1983-yillarda ishchi-xizmatchilarni o'z sog'lig'ini tiklash maqsadida dam olish uylari va sanatoriyalarga borishi uchun ajratilgan yo'llanmalar soni oz miqdorni tashkil etgan, buning natijasida sog'lig'ida muammolar bor ko'plab ishchilar dam olish uylari hamda sanatoriyalarda davolanish imkoniyatiga ega

bo'lmagan. Qayta qurish yillarida mazkur zavodda mehnatkashlar sog'lig'ini saqlash va ularga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish borasida bir qator ijobiy o'zgarishlar yuz bergan.

Xususan, zavod ma'muriyati va mahalliy kasaba uyushma qo'mitasi tashabbusi bilan ishchi-xizmatchilar uchun dam olish uylari hamda sanatoriyalar uchun ajratilayotgan yo'llanmalar miqdori ko'paytirilgan. Masalan, 1985–1986-yillarda zavodda mehnat qilayotgan ishchilar uchun dam olish uylari va sanatoriyalar uchun 37 ta, O'zbekiston SSR hamda Sovet Ittifoqi bo'ylab amalga oshiriladigan sayohatlar uchun esa 50ta yo'llanma taqdim etilgan. Masalan, ushbu zavodda chilangar bo'lib mehnat qilgan S.Sayidjalilov yo'llanma bilan Yaltadagi “Yasnaya polyana” sanatoriyasida davolanib kelgan bo'lsa, elektrik X.Uzoqov Ukraina SSRda, buldozerchi A.Hatamov esa Boltiqbo'yi respublikalari bo'ylab tashkil etilgan sayohatda qatnashgan. Bundan tashqari, zavod ma'muriyati tomonidan turar joyga ehtiyojmand ishchilardan 4 nafariga 1985-yilda ko'p qavatli uylardan xonadonlar ajratilgan[2.3-bet].

“Namangan haqiqati” gazetasining 1986-yil sonlarida ham viloyatdagi yengil sanoat tarmog'iga mansub korxonalarda mehnatkashlar uchun ish sharoitlarini takomillashtirish borasida joriy etilgan ijobiy tadbirlar haqida ham turkum maqolalar e'lon qilib borilgan. Masalan, ushbu gazetaning 1986-yildagi 24-sonida R.Akbaraliyev muallifligidagi “G'amxo'rlik tufayli” sarlavhali maqola e'lon qilingan. Ushbu maqolada viloyat markazida faoliyat olib borayotgan Namangan avrli shoyi gazlamalar kombinatida ishchi-xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash masalasida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Maqolada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Namangan avrli shoyi gazlamalar kombinatida 1986-yil yanvarida 1010 nafar ishchiga mo'ljallangan oshxona, bir vaqtning o'zida 320 nafar bemorga tibbiy xizmat ko'rsatish quvvatiga ega tibbiyot punkti, 100 o'rinli sanatoriya-profilkatoriya faoliyat ko'rsatgan. Shuningdek, kombinatning “Oromgoh” dam olish uyi ham mavjud bo'lib, bu yerda kombinatning muhandis-texnik xodimlari va ishchi-xizmatchilari dam olish vaqtlarini mazmunli o'tkazgan. Ushbu dam olish uyining umumiy maydoni 15 gektardan iborat

bo'lib, bu yerda kombinat mehnatkashlari hordiq chiqarishi uchun yuqori darajali sharoitlar tashkil etilishi bilan bir qatorda ular uchun turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar ham tashkil qilingan.

Maqolada shuningdek, kombinatning boshqaruv ma'muriyati va mahalliy kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan ishchi-xizmatchilarga 1985-yil davomida 758 dona sanatoriyalar va dam olish uylariga yo'llanmalar taqdim etilganligi keltirilgan. Kombinatda mehnat qilayotgan ishchilarning asosiy qismini xotin-qizlar tashkil etganligi bois korxonada ayollar uchun mehnat qonunchiligida belgilangan barcha talablarga amal qilingan. Xususan, kombinatda ayollar uchun talab darajasida jihozlangan gigiyena xonasi faoliyat olib borgan. Shuningdek, yosh farzandi bor ayol ishchi-xizmatchilar uchun 5ta, jami 100 o'rinli bolalar bog'chasi faoliyat ko'rsatgan. Kombinatda ishchi-xizmatchilarning sog'lom turmush tarziga amal qilib o'z sog'lig'ini mustahkamlash jarayonlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu jarayonda kombinatda faoliyat olib borayotgan ko'ngilli sport klubining xizmatlari katta bo'lgan. Mazkur sport klubida kombinat muhandis-texnik xodimlari va ishchi-xizmatchilardan 3100 nafari sportning turli yo'nalishlari bilan shug'ullangan. Mazkur maqolada Namangan avrli shoyi gazlamalar kombinatida ishchi-xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash jarayonida erishilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda kombinatda mavjud bir qancha kamchiliklar ham bayon etilgan. Ana shunday kamchiliklardan biri kombinatda uy-joyga ehtiyoji mavjud ishchilarning ehtiyojlari to'la qondirilmayotganligi va kombinatning transport bo'limidagi ishchilarga transport xizmatini ko'rsatadigan avtobuslarni ma'nan eskirganligi hamda yangilari bilan almashtirilmayotganligi bo'lgan[3.3-bet].

Keyingi yillarda ham Namangan viloyatida nashr etilayotgan matbuot nashrlarida sanoat ishchilarining mehnat sharoitlarini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar to'g'risida maqolalar e'lon qilinib borilgan. Masalan, “Namangan haqiqati” gazetasining 1988-yil 3-fevraldagi 24-sonida e'lon qilingan “Insonga g'amxo'rlik – muhim omil” nomli maqolada viloyatdagi sanoat korxonalari ishchi-xizmatchilari uchun haftaning shanba-yakshanba kunlari tashkil etilgan dam olish tadbirlari haqida ma'lumotlar

berilgan. Ushbu maqolada berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1988-yil yanvar-fevral oylarida Namangan shahrida faoliyat olib borayotgan sanoat korxonalari mehnatkashlari Yangiqo'rg'on tumanidagi "Ko'ksaroy" dam olish maskaniga hordiq chiqarish uchun tashrif buyurgan. Ushbu dam olish maskaniga kelayotgan ishchi-xizmatchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Xususan, dam oluvchilar uchun velosiped va chang'ilar ijarasi joriy etilgan. Bundan tashqari, bu yerdagi oshxonada dam oluvchilar uchun mazali taomlar tayyorlab berilgan. Ushbu dam oish uyiga tashrif buyurgan Namangan noto'qima matolar ishlab chiqarish birlashmasi sex boshlig'i X.Usmonovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, ushbu korxona ma'muriyati va mahalliy kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan ishchi-xizmatchilar uchun sayohatlar, sog'lig'ini tiklash uchun sanatoriya hamda kurortlarga yo'llanmalar taqdim etib kelingan. Korxona vakili bergan ma'lumotlarga ko'ra, Namangan noto'qima matolar ishlab chiqarish birlashmasi ishchi-xizmatchilari 1987-yil davomida Toshkent va Samarqand shaharlari, shuningdek, Leninobod (hozirda Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati), Arslonbob hududlari (hozirgi Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyati)ga sayohatga olib borilgan[4.3-bet].

XULOSA. Ushbu maqolada XX asrning 80-yillari oxirida Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida ishchilarning mehnat muhofazasi masalalari o'rganildi. Tadqiqot davomida viloyatda o'rganilgan davrda nashr qilinga "Namangan haqiqati" gazetasi sahifalarida e'lon qilingan maqolalar asosida ishchi-xizmatchilarning sog'lig'ini tiklash, dam olish uylari va sanatoriyalarga yuborish, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilashga oid ma'lumotlar tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, qayta qurish yillarida Namangan viloyati sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi masalasida ayrim ijobiy o'zgarishlar yuz bergan. Sanoat korxonalarida mehnat sharoitlari nisbatan yaxshilangan, korxonalarda ishchilar uchun sanatoriya-profilkatoriyalar faoliyati yo'lga qo'yilgan, dam olish maskanlari ishchilar ixtiyoriga berilgan.

Shu bilan bir qatorda vaqtli matbuotda e'lon qilingan materiallar asosida bu davrda viloyatdagi sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi masalasida bir qator muammolar mavjud bo'lganligi ham ma'lum bo'ldi. Jumaladan, ushbu maqolalarda viloyatdagi ayrim yengil sanoat korxonalarida ishchilarni uy-joy bilan ta'minlash tadbirlari va ishchilarni tashishda transport bilan ta'minlash yetarli darajada bo'lmaganligim, transport vositalarini talabga javob bermaslik holatlari ham yoritilgan.

Maqolada ilgari surilgan natijalar quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga olib keladi:

1. Ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqotda Sovet davri sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi muammolarini aks ettiruvchi mahalliy matbuot materiallari tahlil qilinib tarix fanida kam o'rganilgan manba "Namangan haqiqati" gazetasining 1985-1988-yillarda nashr qilingan sonlari ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan.

2. Amaliy ahamiyatiga ko'ra, maqolada o'rganilgan tarixiy tajriba bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidagi sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirish, ishchi-xizmatchilar salomatligini muhofaza qilish, ularning ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, maqoladan olingan ilmiy natijalar O'zbekistonda mehnat muhofazasi tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan zamonaviy islohotlarning tarixiy ildizlarini anglashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Sulaymonov. O'zaro tajriba almashdilar. //Namangan haqiqati gazetasi. 15.01.1985-y. 9-son. 3-bet.
2. A.Yoqubov. Mehnat kishisi ardoqda. //Namangan haqiqati gazetasi. 22.01.1986-y.14-son.3-bet.
3. R.Akbaraliyev. G'amho'rlik tufayli. //Namangan haqiqati gazetasi. 5.02.1986-y. 24-son. 3-bet.
4. Insonga g'amho'rlik – muhim omil. //Namangan haqiqati gazetasi. 3.02.1988-y. 24-son. 3-bet.